

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TOHIROVA SHOHSANAM YUNUSOVNA

**ENERGETIKA YO'NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILI
DARSLARIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI KEYS
TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Tohirova Shohsanam Yunusovna

Energetika yo‘nalishi talabalarining ingliz tili darslarida leksik kompetensiyani
keys texnologiyalari vositasida rivojlantirish metodikasi3

Тохинова Шохсанам Юнусовна

Методика развития лексической компетенции студентов энергетического
направления на занятиях по английскому языку с использованием кейс-
технологий23

Tokhirova Shokhsanam Yunusovna

Methodology of Development of Lexical Competence in English Language
Classes of Students of Power Engineering Faculty Using Case Technologies45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TOHIROVA SHOHSANAM YUNUSOVNA

**ENERGETIKA YO'NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILI
DARSLARIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI KEYS
TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.Phd/Ped7545 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoliyorov Bunyod Husanovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yusupova Shoxida Batirovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi Phd.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 24-fevral soat 09.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy.) Tel.: (99865) 221-29-14; faks: (99865) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (823-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 13-fevral kuni tarqatildi.

(2026-yil 12-fevraldagi 17 - raqamli reyestr bayonnomasi)



N.B. Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Y.B. Ro'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.Sh. Olimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda fan va texnika taraqqiyoti energiya ishlab chiqarish va uni o'zgartirishning yangi usullarini topish, yangi samarali asbob-uskunalar va texnologiyalarni yaratish, energiyani taqsimlashni markazlashtirish hamda boshqalar orqali ifodalanadi. Energetika fani tabiiy energiya resurslarining potensial energiyasini xalq xo'jaligida foydalanishga yaroqli va foydali energiya turlariga aylantirish hamda shu bilan bog'liq ilmiy texnik muammolarni hal qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Tabiiyki, mazkur yo'nalishning bo'lajak mutaxassislari uchun til bilish kelgusida o'z sohalarini bo'yicha jahon tajribasidan ogoh bo'lish imkonini beradi. Zero, zamonaviy ilmiy texnika taraqqiyoti fan va ishlab chiqarish sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Dunyoda hozirda muqobil energiya manbalaridan samarali foydalanish va muqobil energiyani turli xil manbalari ustida ishlash global masalaga aylangan. Shuning uchun ham mamlakatimizda mazkur sohaga katta qiziqish bilan yondashayotgan yoshlar ancha. Zotan, ixtisoslashtirilgan sohalarda ingliz tili ta'limiga ko'proq e'tibor berish bo'lajak mutaxassislarning o'z sohalarini boyitishlarida butun jahon malaka va bilimlaridan foydalanishlariga keng imkon yaratadi. AQSH, Angliya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Hindiston, Koreya kabi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga tayanib talabalarda kommunikativlikni rivojlantirish, ayniqsa, keyslarga asoslanga yondashuv (Case-based learning) asosida ta'lim berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda energetikaga ixtisoslashgan yo'nalishlarda keys texnologiyasiga asoslangan yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish, bu borada soha talabalarini egallagan bilimlarini amalda qo'llash, leksik kompetentligini rivojlantirish, kommunikativ kompetentsiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, autentik matnlarni tanlash mezonlaridan foydalanish (Content and Language Integrated Learning), talabalarda sohaviy leksik malakalarni oshirish (English-Medium Instruction, Task-Based Learning, Language-Based Learning, Content-Based Learning, Project-Based Learning) bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ahamiyatga molik. Chet el tajribalarini o'rganish, ularda mavjud va milliy metodikalarni uyg'unlashtirish, yo'naltirilgan sohalarga moslashtirishga bo'lgan talab ilmiy ishning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 19-yanvardagi 34-son "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari va

boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda o'qitishda keys texnologiyalardan foydalanishga sifat jihatdan yondashuv masalalari yuzasidan S.B.Merriam; keys texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalar uchun markazlashgan interaktiv dars muhitini yaratishi haqida R.A.Grant; bo'lajak muhandislar uchun ingliz tilini o'rganishning samarali usuli sifatida uzluksiz keyslardan foydalanish yuzasidan K.Halatsyn, A.Feshchuk, A.Galaidin; muhandislik talabalarida keys texnologiyalarining qo'llanishining samarali natijalari xususida J.Parkinson, C.Vatterson va L. Whitty; ingliz tilini qo'shimcha til sifatida o'qitishga keys-stadi yondashuvini qo'llashga doir tadqiqotlar bilan E.Tsaliki; elektrotexnika yo'nalishi magistratura talabalarini uchun chet tillarini o'qitishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida keys-stadi yondashuvidan foydalanish borasida S.Nikiporets; qayta tiklanuvchi energiya manbalari yo'nalishi talabalarini uchun ehtiyojlar tahlilini keyslarda o'tkazish yuzasidan A.Hattani; maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini o'qitishga ko'psohaviy yondashuv borasida D.Evans, S.Jons tadqiqot ishlarini olib borishgan¹.

MDHda keyslar yordamida chet tili mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan Z.V.Fedorinova; bakalavr-lingvistlarni kasbiy tayyorlashda keys-texnologiyasidan foydalanish xususiyatlari yuzasidan A.A.Ayrapetov; keys texnologiyalari asosida bakalavr-filologning pedagogik amaliyotini tashkil etish va o'tkazish metodikasi yuzasidan I.V.Shumova; talabalarni keys-stadi metodidan foydalanib kasbiy chet til diskursiga o'rgatish metodikasi haqida M.A.Korneva; chet tilini o'qitishda keys-stadidan foydalanish orqali talabaning intellektual faoliyatini rivojlantirish haqida D.Y.Tulepbergenova; pedagogik ta'lim muassasalarida keys-stadi faol ingliz tili o'qitish metodi sifatida foydalanilishi xususida I.M.Shepshinskaya² tadqiqotlari mavjud.

¹Merriam S.B. A Qualitative Research and Case Study Applications In Education. –San Francisco, 1998.; Grant R. A Claim for the Case Method in the Teaching of Geography // Journal of Geography in Higher Education. –1997. – Vol. 21, No. 2. –P. 171–185.; Halatsyn K., Feshchuk, A., Galaidin, A. Continuous Case Study as an Effective Method of English Language Learning by Future Engineers // Scientific Journal of Polonia University. –2020. –Vol. 42. –P. 5.; Parkinson J., Watterson C., Whitty L. Constructing arguments in engineering student case studies // English for Specific Purposes. –2022. –Vol. 68. –P. 14–30.; Tsaliki E. Teaching English as an additional language: a case study approach // Journal for Multicultural Education. –2020. –T. 15, №1. –C. 52-67.; Nykyporets S. Utilizing a Case Study Approach to Foster Critical Thinking in Foreign Language Teaching for Masters in Power Engineering // Logos. –2023.; Ait Hattani, H. ESP Needs Analysis at the Moroccan University: Renewable Energy Engineering Students at EST Fes as a Case Study // Journal of English Language Teaching and Linguistics. –Morocco, 2019. – Vol. 4, No. 1. –P. 1-15.; Dudley-Evans T., St. John, M. J. Developments of in English for Specific Purposes: A Multi-disciplinary Approach. –Cambridge: Cambridge University Press, 1998.

² Федоринова З.В. Создание и использование образовательного потенциала технологии case-study на учебном занятии: на примере организации учебных занятий по иностранному языку: Автореф. дисс. канд.

Mamlakatimizda chet tilini o'qitishning yangi texnologiyalari va metodlarini o'rgangan olimlarning ko'lamini achagina katta, ular orasida ayniqsa, J.J.Jalolov, F.M. Rashidova, G.Mahkamova, I.M.Tuxtasinov chet tilini o'qitish texnologiyalari va muammolarini o'z ishlarida chuqur tahlil qilishgan³.

Nofilologik yo'nalishlarda ingliz tilini o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha B.H.Xoliyorov⁴, ingliz tili darslarida bo'lajak muhandislarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish borasida X.B.Bakirova⁵, texnika yo'nalishlariga ingliz tilini o'qitishda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning metodik asoslari bilan S.J.Muxamedjanova⁶ ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Shuningdek, xorijiy tilni o'qitishda pedagogik, keys texnologiyalarning ahamiyati haqida G.T.Melikova⁷ ilmiy izlanishlarida so'z yuritilgan. Shuningdek, oliy ta'limda interfaol metodlar va muammoli ta'lim asosida keys texnologiyasini joriy etish masalalari xususida R.X.Djurayev⁸, kasbiy ta'lim metodikasida keys va kompetensiyaviy yondashuv masalalari haqida N.A.Muslimov⁹lar muayyan tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

Aynan energetika ta'lim yo'nalishidagi ingliz tili darslarida keys texnologiyalardan foydalanib leksik kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati hozirgacha atroflicha o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasining "Nofilologik oliy o'quv yurtlarida chet tilida erkin muloqot qiladigan kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish" bandi doirasida bajarilgan.

пед. наук. –Томск, 2018.; Айрапетов А.А. Особенности применения кейс-технологий в профессиональной подготовке бакалавров-лингвистов: Автореф. дисс. канд. пед. наук. –Ставрополь, 2018.; Шумова И.В. Методика организации и проведения педагогической практики бакалавра-филолога на основе кейс-технологий: Автореф. дисс. канд. пед. наук. –Москва. 2010.; Корнеева М.А. Методика обучения студентов направления подготовки "Прикладная механика" профессиональному иноязычному дискурсу с использованием кейс-стадии метода: Дисс. ... канд. пед. наук. –Нижний Новгород, 2018.; Тулепбергенова Д.Ю. Развитие интеллектуальной активности студента при использовании кейс-стадии в обучении иностранному языку: Дисс. ... канд. пед. наук. –Махачкала, 2015. –С. 126-129.; Шепшинская И. М. "Кейс-стадии как активный метод обучения иностранным языкам в педагогическом вузе" //Сибирский педагогический журнал. –Новосибирск, 2013. –№ 5.

³Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. –T., 2012. –B. 434.; Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (например английского языка): Дисс...док. пед. наук. –T., 2017. –С.309.; Махкамова Г.Т.Вопросы билингвизма и мультилингвизма в подготовке будущих специалистов английского языка// Ўзбекистонда хорижий тиллар. –T., 2017. –С.11.; Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш: Автореф....кан.пед.наук. –T., 2018;

⁴Xoliyorov. B.H. Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan yo'nalishlarda ingliz tilini o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish: Ped. fan. bo'y. fal. doktori diss. avtoref. –Samarqand, 2021.

⁵Bakirova X.B. Ingliz tili darslarida bo'lajak muhandislarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. fan. bo'y. fal. doktori diss. (PhD) avtoref. – Toshkent, 2024. –60 b.

⁶Muxamedjanova S.J. Bo'lajak mutaxassislarda ingliz tilini o'qitish jarayonida kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning metodik asoslari (texnika yo'nalishi misolida): Ped. fan. bo'y. fal. doktori diss. avtoref. – Samarqand, 2021. –50 b.

⁷Melikova G.T. Chet tilini o'qitishda yangi texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. –2021. –Vol. 1, No. 9. –P. 551-555.

⁸Djurayev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. –T: Sano-Standart, 2010. –87 b.

⁹ Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fanl.dokt... diss. –T.: 2007. – 357 b.

Tadqiqotning maqsadi energetika yo‘nalishi talabalarining ingliz tili darslarida leksik kompetensiyani keys texnologiyalari vositasida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nofilologik yo‘nalish talabalarida chet tili bo‘yicha leksik kompetensiyani keys texnologiyalari vositasida rivojlantirishning nazariy asoslarini o‘rganish;

energetika ta‘lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tili darslarida leksik kompetensiyasini rivojlantirish uchun yangi keystexnologiyalari portfoliosini ishlab chiqish;

energetika ta‘lim yo‘nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari vositasida rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish;

energetika ta‘lim yo‘nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari asosida rivojlantiruvchi leksik birliklar bazasini shakllantirish.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta‘lim muassasalarining energetika yo‘nalishi quyi bosqich talabalarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari asosida rivojlantirish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini talabalarining ingliz tilida leksik kompetensiyasini keys texnologiyalar asosida rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari sifatida tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, diagnostik so‘rov, test, kuzatish, prognostik ekspert, baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov va matematik statistika, natijalarni grafik tasvirlash kabilaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maxsus maqsadlar uchun ingliz tili o‘qitishda leksik kompetensiyani keys texnologiyalari vositasida rivojlantirishga doir xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashgan milliy tendensiya o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan;

energetika sohasiga ixtisoslashgan ta‘lim muassasalarida talabalarining leksik kompetensiyasini oshirishda yuzaga keluvchi muammolarning tizimlashtirilgan bazasi hamda ularning yechimiga qaratilgan keys texnologiyalar portfoliosi yaratilgan;

talabalarining leksik kompetensiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan bo‘lgan keyslar hamda axborot texnologiyalar bilan gibrid shaklda qo‘llagan holda rivojlantiruvchi takomillashgan mashqlar tizimi ishlab chiqilgan;

energetika yo‘nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari asosida rivojlantirishga yo‘naltirilgan terminologik minimum jamlangan hamda maxsus energetik leksik birliklar bazasi tizimlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

energetika ta'lim yo'nalishlari uchun nufuzli xalqaro OTMlarning tajribasi asosida (shift) xorijiy til fanidan o'quv dasturi ishlab chiqildi va tajriba maydonchalarida amaliyotga tatbiq etildi;

“Muqobil energiya manbalari” ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun “English for Alternative Energy” nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan;

energetika ta'lim yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari asosida rivojlantiruvchi keyslar to'plami, keysga asoslangan mashqlar tizimi va leksik birliklar bazasini o'zida jamlagan “Case Portfolio” nomli metodik qo'llanma ishlab chiqilgan;

energetika ta'lim yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari vositasida rivojlantiruvchi leksik birliklar bazasini o'zida jamlagan “Energy lexis” terminologik lug'at tuzilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan nazariy ma'lumotlar va usullarning ishonchli manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati energetika ta'lim yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari vositasida rivojlantirishga doir xorijiy ilmiy ishlar tahlil qilinganligi, ilg'or tajribalar o'quv jarayoniga tatbiq etilganligi, energetika ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tili darslarining kasbga yo'naltirilganlik holati ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati til o'rgatishning innovatsion pedagogik metodlarga asoslangan samarali usullari, mashq va topshiriqlar takomillashgan tizimining yaratilganligi, shuningdek, til o'rgatishda yangi tizimli metodik ta'minotdan energetika sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda, o'quv kurslaridagi amaliy mashg'ulotlarda hamda soha bo'yicha o'quv adabiyotlarning yangi avlodini shakllantirishda foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalarida energetika yo'nalishi talabalarining ingliz tili darslarida leksik kompetensiyani keys texnologiyalari vositasida rivojlantirish metodikasi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

maxsus maqsadlar uchun ingliz tili o'qitishda leksik kompetensiyani keys texnologiyalari vositasida rivojlantirishga doir xalqaro tajriba bilan uyg'unlashgan milliy tendensiya o'quv jarayoniga tatbiq etilgan natijalardan “English for Alternative Energy” nomli o'quv qo'llanmani yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 07-maydagi “149”-son buyrug'i; № 895100 nashr guvohnomasi). Natijada o'quv qo'llanmaning tarkibiy qismlarida energetika ta'lim yo'nalishi talabalarining leksik

kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan sohaviy mavzular tizimi shakllantirildi va amaliyotga tatbiq etildi;

energetika sohasiga ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida talabalarning leksik kompetensiyasini oshirishda yuzaga keluvchi muammolarning tizimlashtirilgan bazasi hamda ularning yechimiga qaratilgan keys texnologiyalar portfoliosi mazmuni "Case Portfolio" nomli metodik qo'llanmaga singdirilgan (Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti uslubiy kengashining 2024-yil 26-oktabrdagi 3-son yig'ilishi ruxsati). Natijada metodik qo'llanmadan mutassislikka oid eng dolzarb muammolarga asoslangan bir qancha keyslar, keyslar asosida tuzilgan mashqlar tizimi joy olgan. Metodik qo'llanmada jamlangan birliklar orqali talabalarning leksik kompetentligini oshirish maqsad qilingan va qo'llanma amaliyotga tatbiq etilgan;

talabalar leksik kompetensiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan bo'lgan keyslar hamda axborot texnologiyalar bilan gibrid shaklda qo'llagan holda rivojlantiruvchi takomillashgan mashqlar tizimi dan 2024-2026-yillarda bajarilgan Erasmus + dasturining "ICM, KA-107-International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, Through Staff and Student Mobility Exchange Projects" – Yevropa ittifoqi hamda O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalari o'rtasida "Xalqaro tajriba almashinuvi doirasidagi kredit safarbarligi" mavzusidagi xalqaro loyihasining ijtimoiy fanlar sektori pedagogika bo'limi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat texnika universitetining 2026-yil 9-yanvardagi №17-45-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha xalqaro ta'lim sohasidagi ta'lim va kasbiy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, rivojlantirish strategiyalari va umumiy tendensiyalari hamda milliy ta'lim tizimini jamiyatda ta'lim, fan va ishlab chiqarish bilan bog'lash to'g'risidagi tahliliy fikrlar va nazariy xulosalar bilan boyitilgan;

energetika yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan terminologik minimum jamlangan hamda maxsus energetik leksik birliklar bazasi tizimlashtirilgan natijalardan 2021-2027-yillarda bajarilib kelinayotgan Erasmus+ dasturining "KA-1-Mobility of higher education students and staff between EU member States and third countries associated to the Programme and third countries not associated to the program" – Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va Dasturga bog'liq uchinchi mamlakatlar hamda Dasturga bog'liq bo'lmagan uchinchi mamlakatlar o'rtasida "Oliy ta'lim talabalari va xodimlarining safarbarligi" mavzusidagi xalqaro loyihaning ijtimoiy fanlar sektori pedagogika bo'limida foydalanilgan (Axborot texnologiyalari va management universiteti Nodavlat oliy ta'lim tashkilotining 2024 yil 2 dekabrda 217-sonli ma'lumotnomasi). Natijada energetika yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari asosida rivojlantiruvchi leksik mavzular hamda keyslarga asoslangan materiallarni o'zida jamlagan "English for Energy" web platformasi (№DGU 43897) loyihaning ingliz tilini maxsus maqsadlarda o'qitishdagi ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilgan;

Ilmiy ishning natijalari va materiallaridan “TUMED – International Alumni Association” tomonidan tashkil qilingan loyihalardan biri “Uluslararası Mezunlar Kariyer İnşası” doirasida pedagogika sohasiga oid qismida qoʻllanilgan (“TUMED – International Alumni Association” ning 2025-yil 20-maydagi №04/524 soni maʼlumotnomasi). Natijada Oʻzbekistonda taʼlim sohasida sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar va sohadagi yutuqlarning ilmiy hamjamiyatga taʼsirini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida maʼruzalar koʻrinishida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 21 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta oʻquv qoʻllanma, 1 ta usuliy qoʻllanma, 1 ta terminologik lugʻat, 1 ta elektron oʻquv web platforma, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy jurnalda, 6 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati aniqlangan. Ishda Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalar asosida tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Dissertatsiya natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, eʼlon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Energetika yoʻnalishida ingliz tili oʻqitishda talabalarning leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari vositasida rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida keys texnologiyalarining oʻziga xos xususiyatlari, ularning amaliy mashgʻulotlarda ahamiyati, shuningdek, ingliz tilini oʻqitishda energetika yoʻnalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keyslar vositasida rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan. Taʼlim rivojining asosida shubhasiz, mutaxassisning kasbiy tendensiyasini oshirib boruvchi turli xil taʼlimiy texnologiyalar va metodlar yotadi. Shu sababli ham bu sohada taʼlim sifati va mazmuni alohida nazorat ostiga olingan. Har daqiqada rivojlanib, oʻzgarib borayotgan zamonda oʻrganilayotgan fan boʻyicha bilim va koʻnikmalarni oshirish nafaqat talabalarga balki oʻqituvchilarga ham qoʻyiladigan talab boʻlishi maqsadga muvofiq.

Tarixan “texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan. Mazkur tushuncha san’at, hunar va fan haqidagi ta’limotga muvofiq keladi. Texnologiya deganda, odatda, ashyolarni qayta ishlash metodlari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning ilmiy tavsiflarining majmuyi tushuniladi.

Pedagogik texnologiyasiz pedagogik jarayon real o‘qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi¹⁰. Shu nuqtayi nazardan ingliz tili darslarida ham pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan avval mashg‘ulotning texnologik xaritasini shakllantirish, darsning har bir bosqichini ma’lum bir vaqt kesimida aniq rejalashtirib olish muhim ahamiyatga ega. Bunda talabalarning bilim darajasini, ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olish lozim. Demak, ingliz tili darslarida ham turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonida talabalarni yanada faollikka va bilim ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga alohida kayfiyatni yaratib beradi deb hisoblaymiz. Ayniqsa, bumerang (boomerang), muloqot (communication), muammo (problem) kabi ta’lim texnologiyalari talabalarda jamoada ishlash, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, ishontira olish, o‘z fikrini isbotlay olish kabi bir qancha ko‘nikmalarni shakllantira olishi sir emas. Zero, N.S.Saliyeva ta’kidlaganidek, pedagogik texnologiya bu ta’lim ishtrokchilari uchun qulay sharoitlarni ta’minlash va muayyan natijaga erishish uchun uni rejalashtirish, tashkil etish va to‘g‘ri yo‘naltirishdir¹¹.

Keys stadilardan foydalanish nofilologik yo‘nalishlarda o‘qituvchi va talaba o‘rtasida muloqotning shaklini osonlashtiradi. Zotan, o‘qituvchi berayotgan ko‘rsatmalar aniqroq tushuniladi. Oldin olgan bilimlarini takrorlagan talabalar berilgan muammoda o‘rganilayotgan tilda fikrlashni, tanqidiy mulohaza qilishni o‘rganishadi. Bu borada J.H.Fleyvl metakognitiv yondashuv orqali talabalar o‘z o‘rganish jarayonini nazorat qilish va takrorlash orqali o‘rganilgan bilimlarni yanada mustahkamlashini e’tirof etadi. Olim fikricha, mazkur yondashuv til o‘rganishida ham samarali bo‘lib, talabalar o‘z fikrlarini tartibga solib, mantiqiy va tanqidiy mulohaza qilishni o‘zlashtiradilar¹². Keyslardan foydalanish leksik birliklarni o‘zlashtirish barobarida talabalarning tanqidiy fikrlashini ham kengaytiradi. Keys stadi o‘zining uzoq shakllanish bosqichlariga egaligi bilan ahamiyat kasb etadi. Keys stadilar farazlarni sinovdan o‘tkazish uchun qo‘llanilishi keyingi o‘n yillikda paydo bo‘ldi va samarali metodga aylanishga ulgirdi. Keys stadilardan foydalanish muammoli ta’lim bilan uzviy bog‘liq. Taniqli metodist M.I.Maxmutov ta’kidlashicha, muammoli o‘qitish bu mantiqiy fikrlar tahlili hisobga olinadigan o‘rgatish va dars berishda talabalarning tadqiqot faoliyati qonuniyatlari, ya’ni muammoli vaziyatni o‘rganishga qiziqish, unga yechim topish

¹⁰Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. –20 b.

¹¹Saliyeva N.S. Oliy ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish muammosini o‘rganishning ilmiy-metodik asoslari // Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi. –2022. –Jild 3, №4. –B. 167-69.


¹²Flavell J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry. – American Psychologist, 1979. –Vol. 34, No. 10. –P. 906-911.

kabilarni hisobga olishdir¹³. Bunda talabalar o'z kasbiy faoliyatlari bilan bog'liq vaziyatlarni chuqur o'rganishlari orqali nazariya va amaliyot o'rtasida o'zaro aloqa yaratiladi.

Hozirda ta'lim jarayonidagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar maxsus maqsadlarga mo'ljallangan (keying o'rinlarda "ESP" deb yuritiladi) sohada ham ta'sir ko'rsatdi. Bugunga kelib ESP o'qituvchilari mutaxxassislik fani o'qituvchilar (Content teachers)i bilan doimiy muloqotda bo'lishlari va hamkorlik qilishlari talab etiladi. Zero, aksariyat ESP tadqiqotlarida pedagogik muammolarni bartaraf etish uchun fan o'qituvchisi bilan hamkorlik qilish samara berishi ta'kidlangan.

Keys stadi metodining an'anaviy metoddan ustunligi quyidagilar hisoblanadi: davomadning ortishi, o'qitish jarayoniga pozitiv munosabatning shakllanishi, uzoq muddatli xotirani mustahkamlash, o'qishga bo'lgan motivatsiya, muammoni yechish ko'nikmalarini yaxshilash. Metodning ma'nosi shundaki, talabaga tayyor bilimlar berilmaydi, uning o'zi muammoning yechish yo'llarini ishlab chiqishi lozim.


Tahlillarimiz asosida amin bo'ldikki, nofilologik oliy o'quv yurtlari uchun leksik minimum 2500-3000 so'zni tashkil qilishi lozim. Bunda 1000 ta so'z – umum iste'moldagi leksika – aktiv va 2000 tasi professional terminlar – passiv leksikani tashkil etishi o'rinli. Demak, nofilologik yo'nalishlaridagi ingliz tili o'qituvchilarining vazifalari sohaning boshqa vakillariga nisbatan anchagina murakkab. Ular talabalarning tanlagan yo'nalishlari nuqtayi nazaridan ham xabardor bo'lishlari talab etiladi. Tabiiyki, energetika yo'nalishida ingliz tilidan dars beruvchi o'qituvchilar ham shu talablarga javob berishi lozim. Zotan, bugungi kunda butun dunyoni tashvishga solayotgan energiya tanqisligi va muqobil energiya manbalaridan foydalanishning yangi usullarini yaratish kabi muammolarga yechim topishda mazkur yo'nalish talabalarini ingliz tilida erkin muloqot qiliuvchi kadrlar sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda, albatta, o'quv mashg'ulotlarini keyslardan foydalangan holda tashkil etish samara beradi (Qarang: 1.5-rasm):



“1.5-rasm”. Keysga tayyorgarlik bosqichlari


Ingliz tilini o'qitishda energetika yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keyslar vositasida rivojlantirishda o'qituvchilarda quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin (Qarang: 1.6-rasm):

¹³Махмутов М.И. Проблемное Обучение. Основные Вопросы Теории: Монография. —М.: Педагогика, 1975. —368 С.



“1.6-rasm”. Keys texnologiyasi vositasida o‘qitishda (o‘qituvchilar uchun) yuzaga keladigan muammolar

Quyida berilgan jadvalda keys texnologiyasidan foydalangan holatda dars jarayonlari tashkil etilganda talabalar qanday muammolar va qiyinchiliklarga duch kelishlari keltirib o‘tilgan. Biz har bir muammo va qiyinchilik uchun izohlar va ularni bartaraf etish uchun bir nechta yechimlarni taqdim etamiz (Qarang: 1.7-rasm):




“1.7-rasm”. Keys texnologiyasi vositasida o‘qitishda (talabalar uchun) yuzaga keladigan muammolar

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “**Oliy ta’lim muassasalarining energetika yo‘nalishi talabalarida leksik kompetensiyani keys texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi**” masalalariga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu bobda energetika yo‘nalishlarida mavjud bo‘lgan metodologik ta’minotning tahliliy asoslari, ingliz tilini o‘qitishda energetika yo‘nalishi talabalarining leksik kompetensiyani rivojlantirish uchun yangi keystexnologiyalar portfoliosi, shuningdek, leksik kompetensiyani keys texnologiyalari vositasida rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi hamda leksik birliklar bazasini shakllantirish masalalari chuqur tahlil qilingan.

Turli xil muammoli holatlarni guruhda yoki yakka tarzda o‘rgangan va yechim topishga harakat qilgan talaba, kelajakdagi potensial muammolarni hal etish yo‘llari va ko‘nikmalari, shuningdek, jamoaviy ishlash mahoratini shakllantirgan bo‘ladi. U turli xil vaziyatlarga mustaqil fikr va tashabbuskorlik kabi ko‘nikmalarni hosil qiladi. Jumladan, H.Bakirovaning “Foreign Language for 3rd year power engineering students” nomli o‘quv qo‘llanmasi bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarning ingliz tilida leksik kompetensiyasini rivojlantirishga mo‘ljallangan va h.

Blumning fikrlash qobiliyatlari taksonomiyasida vaziyatga asoslangan ta’lim faoliyatini rivojlantirishning ahamiyatini o‘rgangan Nkhoma (2016), bu yondashuv tanqidiy fikrlash orqali chuqur o‘rganishni rag‘batlantirilishini taklif qiladi (Qarang: 2.1.1-rasm):



“2.1.1-rasm”. Blum taksonomiyasida vaziyatga asoslangan fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyati

Nofilologik yo‘nalishlarda chet tilini o‘qitishdan asosiy maqsad talabalarning o‘rganilayotgan ingliz tilida erkin muloqotlari, o‘rgangan til ko‘nikmalarini ilmiy va kasbiy hayotlarida foydalana oladigan mutaxassislarga bo‘lib yetishishlari nazarda tutilishi ma’lum. Fan dasturida keltirilishicha, nofilologik yo‘nalishlarda xorijiy tilni o‘rgatishdan asosiy maqsad – kelgusi mutaxassislarda kundalik hayotlari,


ilmiy va kasbiy faoliyatlarida chet tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlash. Shu bilan birga, ularda vatanparvarlik hisini rivojlantirish, mustaqil izlanish, bilim va ko'nikmalarini darsdan tashqari paytda ham, OTMni bitirganlaridan keyin ham rivojlantirish hamda umumbashariy va sohaga oid mavzularda ilmiy maqolalar yoza olish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Keys texnologiyasi asosidagi darslarni tashkil etishda dastlab mavzuga doir, qizg'in muhokamaga sabab bo'luvchi, o'tilayotgan dars haqida talabalarda boshlang'ich tushunchalarni shakllantirish maqsadida "qiziqtiruvchi" (warm-up) mashqlarning savollarini o'qituvchi diqqat bilan tanlashi talab etiladi. Quyida berilgan keysimizda ham muhokamalar talabalarni asosiy mavzuga yetaklovchi, u haqida kerakli tushuncha va g'oyalarni shakllanishiga yordam beradigan savollardan iborat. Quyidagi singari keyslarning portfoliosini yaratgan holda har bir keysga oid tuzilgan mashqlarni talabalarning leksik kompetensiyani rivojlantirishiga alohida e'tibor qaratdik:

Case (alternative energy)

Warm-up activity

Look at the pictures and discuss renewable energy sources



ESP kurslarida, ayniqsa, video materiallardan foydalanish samarali, chunki u talabalarning tinglash, gapirish, yozish, o'qish va grammatika kabi til ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Videoning asl mazmuni talabaning ta'lim sohasiga taalluqli qiziqarli mavzular bilan tanishish, shuningdek, yangi so'zlar, grammatik tushunchalar va boshqa kommunikativ faollikni oshirishga e'tibor qaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, videoning ta'lim mazmunidan talabalarni rag'batlantirish uchun ham foydalanish mumkin. Bunga

bir qancha mashg'ulotlar masalan, munozaralar, bahslar, rolli o'yinlar, dialoglar va guruh taqdimotlarini kiritishimiz mumkin¹⁴.

Endi ikkinchi topshiriqni ko'rib chiqsak. Mashg'ulotni tartibi quyidagicha taqdim etiladi:

Activity2

A) Read the case

Solar panels are becoming increasingly popular as a way to save on energy costs, but there are a few common problems that can occur.

*You are a **homeowner** with solar panels. Awareness of the potential problems with their set-up and **maintenance** is imperative. The solar panels you installed were covered with mud, dirt, and debris. There are lots of bird **droppings** and pollen that have accumulated on the panels. As a result, the efficiency of the panels has been reduced.*

Suggest efficient ways to remove any debris that built up on the surface.

Shundan so'ng talabalarga keys taqdim etiladi va o'qib chiqish aytiladi. Notanish so'zlar ajratib olinib izohlari bilan tushuntiriladi. Talabalar keys bilan tanishib chiqqach, ularga yangi so'zlar taqdim etiladi va ularning tarjima hamda ma'nolari so'raladi, xatoliklar tuzatiladi va muhokama qism uchun tayyorgarlik boshlanadi. Talabalar mashg'ulotlarda hamda kundalik hayotda uchraydigan voqea, xabar, hodisa va turli dalillarni o'zlari tahlil qilib, mustaqil fikrga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yishlari kerak. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi muammoli ta'lim talabalarining izlanish faoliyati, bilim va malakalarni chuqur egallab olishini, tevarak-atrofdagi o'zgarishlarga bo'ladigan qarashiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ham yaratib beradi.


Keys o'qib bo'lingach, yangi lug'atlar so'z birikmalari (word phrases) va yakka so'zlar (individual words) shaklida talabalarga taqdim etiladi. Bu orqali talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirish va sohaga oid bilimlarini mustahkamlash maqsad qilinadi. Natijada talabalar so'zlarni yaxshiroq eslab qolishadi va leksik atamalarni tizimli, izchil ravishda tushunisha olishadi. Shuningdek, tadqiqot ishimizning amaliy natijalari yig'indisi sifatida energetika yo'nalishi talabarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari vositasida rivojlantirish metodikasining takomillashtirilgan modelini yaratdik. Bu model orqali tadqiqotning nazariy hamda amaliy natijalarini umumlashtirishga muvaffaq bo'ldik. Energetika yo'nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini keys texnologiyalari vositasida rivojlantirish moduli maqsadli uchta qismdan iborat: kirish, asosiy qism, nazorat va baholash. Yaratilgan modelning mazmuni energetika yo'nalishi talabalarining ingliz tili darslarida keys texnologiyasidan foydalanib leksik kompetensiyani rivojlantirishdan iborat. Mavjud modelning maqsadlari sifatida quyidagilar izohlangan (Qarang: 2.1.2-rasm):

talabalarni aniq bir kompetensiyani egallashga yo'naltirish;

talablarda mantiqiy xulosalash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

talabalarni izchil, bosqichma-bosqich o'quv faoliyatiga jalb etish.

¹⁴ Abidin M.J.Z., Morat B.N. The use of video in ESL teaching and learning: YouTube's potential as a resource // DP, 2011. –Vol. 11. –No. 2. – P. 96.



“2.1.2-rasm”. Energetika yo‘nalishi talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirish modeli

Ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan mashqlar tizimi bir nechta olimlar tomonidan turli xil izohlangan. Prof. V.A. Buxbinder mashqlarni uch turga – informatsion, operatsion va motivatsion mashqlarga taqsimlab tahlil qilgan. Buxbinderning mashqlar nazariyasiga oid qarashlariga tayangan holda biz ham leksik kompetensiyasini keys texnologiyasi asosida rivojlantirishga qaratilgan mashqlar sistemani ishlab chiqdik (Qarang: 2.2-jadval):

2.2-jadval

Talabalarning leksik kompetensiyasini keys texnologiyasi asosida rivojlantirishga qaratilgan mashqlar sistemasi

